

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 66 186,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024-yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 6,6 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan 109,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	56 553,9	66 186,5	106,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	55 704,9	65 278,9	106,6
mahsulotlarga sof soliqlar	848,9	907,5	108,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	55 704,9	65 278,9	106,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21 924,3	24 432,1	103,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	10 382,1	12 546,8	108,9
sanoat	4 980,7	6 446,6	109,3
qurilish	5 401,3	6 100,2	108,5
xizmatlar	23 398,6	28 300,0	108,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8 544,2	10 158,8	110,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 558,2	3 299,8	113,0
boshqa xizmat tarmoqlari	12 296,2	14 841,4	105,6

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 22 223,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,2 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,5	98,6
mahsulotlarga sof soliqlar	1,5	1,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	39,4	37,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	18,6	19,2
sanoat	8,9	9,9
qurilish	9,7	9,3
xizmatlar	42,0	43,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,3	15,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,6	5,1
boshqa xizmat tarmoqlari	22,1	22,7




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,4 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 37,4 % ni, sanoat tarmog'i 9,9 % ni, qurilish 9,3 % ni va xizmatlar sohasi 43,4 % ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,3 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 2,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,1 f.p.) ga ko'paydi .

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2025-yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 37,4 %), sanoatda – 109,3 % (9,9 %), qurilishda – 108,5 % (9,3 %), xizmatlar sohasida – 108,1 % ni (43,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,2 % (15,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,0 % (5,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,6 % dan (22,7 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024-yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 118,4 % va xizmatlar sohasida – 111,9 % qayd etildi.

**Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 49 880,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida – 43 372,7 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 76,4 % ni (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida – 77,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

43 372,7

77,9 %

2025- yil

49 880,9

76,4 %

